


3-1c

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI



TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH VA MODELLASHTIRISH
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	San'at va Gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi:	210000	San'at
Ta'lif yo'nalishi:	60210400	Dizayn (yengil sanoat dizayni)
	60210400	Dizayn (To'qimachilik sanoat dizayni)

Namangan 2024

Fan/modul kodi TBKM1730	O'quv yili 2024-2025 2025-2026 2026-2027	Semestr 4-5-6-7	Kreditlar 30 (6, 8, 8, 8)
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)
	Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish	450	450
2	I.Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – Talabalarga fanni o'zlashlashtirish jarayonida erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini konstruksiyalash kattalar va bolalar gavda turlarini e'tiborga olish, ommaviy buyum ishlab chiqarishda kiyimlarni bosqichma bosqich tayyorlanish jarayonlari, erkin turish qo'shimchalari, gavdadan o'lchovlar olish, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini konstruksiyalash, gavdalarga moslab fason tanlash, asosiy buyum andozalarini ishlab chiqarish, tayyorlangan chizma va andozalarni tahlil qila bilish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - Talabalarni nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda, turli siluetdagi kiyimlari tashqi shaklining tahlili natijasida zamonaviy moda yo'nalishidagi liboslar modelli konstruksiyalarini ishlab chiqish, har xil shakl va hajmli murakkab bichimdagi kiyimlar modelli konstruksiyasini ishlab chiqish, model konstruksiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy progressiv konstruksiyalash usullaridan foydalanish, konstruktiv nuqsonlarni bartaraf qilish orqali sifatli tikuvchilik buyumlarini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Ko'plab tikiladigan kiyimlarni ishlab chiqarish xususiyatlari. Kirish. Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar va kiyim tashqi shakl, sifat ko'rsatkichlari va kiyimga qo'yiladigan talablar. Bazis tori tushunchasi, yosh — jinsiy va to'lalik guruhlari, hisoblash — grafikli konstruksiyalash, umumiy hajmiy shaklini va konstruktiv tuzilishini o'rganish. 2-mavzu. Kiyim funksiyasi. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Kiyim funksiyalari, kiyimning vazifalari, kiyimga qo'yiladigon talablar. Zamonaviy kiyim assortimenti va bichimlari, Mahsulotni klassifikatorini o'rgnish. 3-mavzu. Katta yoshli aholi va yosh bolalar tanasini tasniflaydigan razmer tipologiyasi va razmer standartlari.		

Odamning tanasini harakatlaydigan organlari, Odam tanasining murakkab shakliga mos kiyim loyihalash uni tavsiflaydigan a'zolarining anatomik tuzilishi hamda tashqi shakliga xos xususiyatlari, aholining tanasiga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik qonuniyatları va razmerlar standartlari tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarda asoslangan.

4-mavzu. Kiyim shakli o'lchamlari va konstruksiyasining xususiyatlari.

Kiyim shaklini hosil qilish vositalari. Kiyim detallarining konstruksiyasini tuzishda qo'llanadigan barcha uslublar dastlabki ma'lumotlarga bog'liq holda ikki yirik sinfga bo'linadi: birinchi sinfni tashkil etuvchi uslublar tipaviy qomatlar o'lchamlarida, qo'shimchalarda, detallarning tipaviy bo'linishlari va ularning shakllanish usullarida detallarga oid konstruktiv nuqtalarning taqribiy joylanishini aniqlashga yordam beradi.

5-mavzu. Kiyim konstruksiyalash usullari. Ularning umumiyl tavsisi va tasnifi.

Birinchi, ikkinchi, uchinchi to'rtinchi va beshinchi bosqichlar, ommaviy, model, modellashtirish, raqobatbardoshlilik.

6-mavzu. Kiyim detallarining dastlabki chizmasini tuzish.

Kiyim detallarini dastlabki ishlov berishdan baza to'rini qurishda ayollar ko'ylagini chizmasini tuzish

7-mavzu. Old va orqa bo'laklar asosiy konstruksiyasining chizmasini qurish.

O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar ko'yak baza to'rini old va orqa bo'laklarini konstruksiyasini qurish va hisoblash.

8-mavzu. Bazaviy asoslar konstruksiyalash usullarini va konstruksiylar xarakteristikasi.

Model konstruksiyasi, modellashtirish, kiyim turlari, o'tqazma yengli, baza asosi, o'lcham, kiyim detallari, yangi model, konstruksiya asos, murakkabi, vitachka yo'nalishini.

9-mavzu.Belda turuvchi kiyimlarning bazaviy asos konstruksiyasini qurish.

Belga oid kiyimlar, assortiment, ayollar yubkasi, to'g'ri siluetli, klassik uslub, bazali asos, model konstruksiyasi, shim, yelkali kiyimlar, tayanch sirt, kostruktiv yechimlari, vitochka, majmui, bo'rtiq joylar, tana tuzilishi, figura, yon vitochka, kenglik, bel chizig'i, kesishgan nuqta, orqa vitochka, old vitochka. (belga oid kiyimlar assortimenti va zamonaviy modellari)

10-Ayollar yengil kiyimlarning bazaviy asos konstruksiyasini qurish. O'tqazma va yaxlit yeng konstruksiyasining xususiyatlari va konstruksiyalash usullari.

Ayollar yengil kiyimlarini bazaviy asosini qurgan holda o'tqazma yeng holda modellashtirish va yaxlit yeng konstruksiysiyalash.

11-mavzu. Reglan yeng konstruksiyasining xususiyatlari va konstruksiyalash usullari.

Reglan bichimli buyumlar yelka sathida yumshoqligi va ravonligi bilan ajralib tirishi. Reglan bichimi yeng tana detallari bilan ulangan joyi va chizig'in shakliga

bog'liq holda farqlanishi. Tipovoy reglan, nol reglan, yarim reglan bichimidagi yenglarni konstruksiyalashni o'rghanish.

12-mavzu. Turli yoqalar konstruksiyasining xususiyatlari va konstruksiyalash usullari. Turli shakil va modeldag'i yoqalarni konstruksiyalash

Kiyimning tashqi ko'rinishi, yoqa shakli, ko'tarmali yoqalar, o'tkazma yoqa, yaxlit bichilgan yoqa, bo'yinga yopishib turadigan yoqa, bo'yinga nisbattan erkin turadigan yoqa, yopiq taqilmali yoqa, ochiq taqilmali yoqa, tik yoqalar, qaytarma yoqalar, qaytarmali tik yoqalar, adip, 3) yassi yoqa, fantazi yoqalar, yoqa o'mizi.

13-mavzu. Bazaviy konstruksiya shaklini o'zgartirtilib konstruktiv modellash usullari.

Model konstruksiyasi, modellashtirish, kiyim turlari, o'tqazma yengli, baza asosi, o'lcham, kiyim detallari, yangi model, konstruksiya asos, murakkabi, vitachka yo'nalishini.

14-mavzu. Yeng bichimini o'zgartirilib konstruktiv modellash usullari.

Ayollar ko'ynagini baza to'rini qurgan holda yeng bichimini o'gartirilib konstruktiv modellashtirish.

15-mavzu. Murakkab shakildagi ayollar ko'ylagini modellashtirish. Detallarni konus va parallel kengaytirish, turli shakldagi yubkalarni modellashash.

Murakkab shakldagi ayollar ko'ylagini modellashtirishda detallarni parallel va konusimon kengaytirilgan holda modellashtirish .

16-mavzu: Chaqaloqlar kiyimlarini konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

Chaqaloqlar gavda o'lchamlari. Chaqaloqlar kiyim turlari va assortimentlari tahlili. Tanlangan kiyim konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

17-mavzu: Bog'cha yoshdag'i qiz bolalar ko'ylagi baza asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

Bog'cha yoshdag'i qiz bolalar ko'ylagi asos konstruksiyasi (AK) ni qurish uchun kerakli gavda o'lchamlari. O'lchovlarni olish va hisoblash. Chizmaning asosiy baza to'rini qurish. Orqa tomonning chizmasini qurish Old tomonning qurilish chizmasi. Yengning konstruktiv chizmasi. Yoqa chizmasini qurish

18-mavzu: Maktab yoshidagi bolalar liboslari assortimentlari. Tanlangan kiyim asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

Maktabgacha yoshidagi qiz bolalar liboslari tahlili. Tanlangan kiyim assortimentini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar. Kiyim basis to'rini qurish. Ort bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Old bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Yeng konstruktiv chizmasini qurish. Yoqa konstruktiv chizmasini qurish.

19-mavzu: Maktab yoshdag'i o'gil bolalar va qizbolalar belli kiyimlari baza asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

O'gil bolalar shimi andozasini qurish uchun gavdadan kerakli o'lchamlar olish va hisoblash. Shim old bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Shim ort bo'lak konstruktiv

chizmasini qurish. Qiz bolalar yubkasi asos konstruktsiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

20-mavzu: Bog'cha va maktab yoshidagi qizbolalar mavsumiy ustki kiyim assortimentlari tahlili asosida baza asos konstruktsiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.**

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud mavsumiy ustki kiyim assortimentlar tahlili. Bog'cha yoshidagi qizbolalar mavsumiy ustki kiyim asos konstruktsiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

21-mavzu: Bog'cha va maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.**

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud mavsumiy ustki kiyim assortimentlar tahlili. Bog'cha yoshidagi o'g'il bolalar mavsumiy ustki kiyim asos konstruktsiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

22-mavzu: Maktab yoshidagi qizbolalar va o'g'il bolalar uchun maktab formasi baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.**

Qiz va o'g'il bolalar uchun maktab formalari tahlili. O'smir yoshidagi qizlar, o'g'il bolalar kiyim baza konstruktsiyasini qurish uchun kerakli o'lchamlar olish va hisoblash. Chizmaning asosiy baza to'rini qurish. Ort bo'lak chizmasini qurish. Old bo'lak chizmaini qurish. Yengning konstruktiv chizmasi. Yoqa konstruktiv chizmasi.

23-mavzu: O'smir yoshidagi qizbolalar ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

O'smir yoshidagi qizlar uchun kiyim asos konstruktsiyasini qurish uchun o'lchamlar olish va hisoblash. Konstruktiv qo'shimchalar. Baza asos konstruktsiyani qurish va modellashtirish.

24-mavzu: O'smir yoshidagi qiz bolalar uchun ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish.**

Chizmaning asosiy baza to'rini qurish. Ort bo'lak chizmasini qurish. Old bo'lak chizmasini qurish. Yengning konstruktiv chizmasi. Yoqa konstruktiv chizmasi. Baza to'ri asosida kiyimni modellashtirish.

25-mavzu: O'smir yoshidagi o'g'il bolalar uchun ustki kiyim asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.**

Chizmaning asosiy baza to'rini qurish. Ort bo'lak chizmasini qurish. Old bo'lak chizmasini qurish. Yengning konstruktiv chizmasi. Yoqa konstruktiv chizmasi. Baza to'ri asosida kiyimni modellashtirish.

26-mavzu: Trikotaj tikuv buyumlari baza asos konstruksiyasi (AK) ni qurish va modellashtirish.

Trikotaj yengil kiyimlar assortimentlari tahlili. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar, erkaklar, bolalalar sport uslubidagi yengil kiyimlarini konstruktsiyalash.

27-mavzu: Ustki kiyimlar uchun mo'ljallangan trikotaj to'qimasidan ayollar kiyimlarini konstruktsiyalash va modellashtirish.

Trikotaj to'qimasidan ustki kiyimlarni konstruktsiyalash uchun belgilangan talablar. Ustki kiyimda qo'llaniladigan qo'shimchalar tavsifi. Konstruktsiyalash hususiyati.

28-mavzu: Erkaklar sarochkasi baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

Erkaklar sarochkasi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Sarochka uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Sarochka model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak, yeng asos konstruktsiyasi baza to'rini hisoblash va qurish.

29-mavzu: Erkaklar shimi baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

Erkaklar shimini konstruksiyasini qurishda bir necha turdag'i shimplarni turlari tavsifi. Shim uchun kerakli o'lchamlar. Shim model eskizi bo'yicha baza to'rini hisoblash va qurish.

30-mavzu: Ayollar pidjagi asos konstruksiyasini (AK) hisoblash va qurish.**

Ayollar pidjagi turlari tavsifi. Bir bortli, ikki bortli pidjak turlari. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar pidjagi asos konstruksiyasi (AK) chizmasini qurish uchun gavdadan olinadigan o'lchamlar jadvali. O'lcham qiymatlari asosida tipaviy figura uchun ayollar pidjagi bazali konstruksiyasini hisoblash va qurish.

31-mavzu: Ayollar pidjagi mayda detallari konstruksiyasini hisoblash va qurish.

Kiyim konstruksiyasingning moda yo'naliishiga mosligi. Bort, qopqoqli, listochkali kabi cho'ntak turlarini hisoblash, dastlabki loyihalash ishlarini amalga oshirish. Ayollar pidjagi yoqa turlari tavsifi. Yoqa uchun kerakli o'lchamlar. Dastlabki loyihalash jarayonlari. Yeng turlariga tavsif. Bir chocli, ikki chocli yenglarni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar.

32-mavzu: Ayollar pidjagi asos konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andazani gazlama yuzasiga joylash va yuzasini hisoblash.

Ayollar pidjaginining baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andoza tayyorlashning texnik shartlari. Asos gazlamaga andozaga joylashtirishda tanda va arqoq iplar hisobi. Pidjag andaza yuzasini hisoblash va gazlamaga joylashtirish.

33-mavzu: Erkaklar kastyum shimi baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

Erkaklar kastyum shimini konstruksiyasini qurishda bir necha turdag'i kastyum shimplarni turlari tavsifi. Kastyum shim uchun kerakli o'lchamlar. Kastyum shim model eskizi bo'yicha baza to'rini hisoblash va qurish.

34-Mavzu: Erkaklar pidjagi asos konstruksiyasini (AK) hisoblash va qurish.

Erkaklar pidjagi turlari tavsifi. Bir bortli, ikki bortli pidjak turlari. Konstruktiv metodika turlari. Erkaklar pidjagi asos konstruksiyasi (AK) chizmasini qurish uchun gavdadan olinadigan o'lchamlar jadvali. O'lcham qiymatlari asosida tipaviy figura uchun erkaklar pidjagi bazali konstruksiyasini hisoblash va qurish.

35-Mavzu: Erkaklar pidjagi mayda detallari konstruksiyasini hisoblash va qurish.**

Kiyim konstruksiyasining moda yo‘nalishiga mosligi bo‘yicha laskanlar, bortlar; erkaklar pidjagidagi qopqoqli, listochkali kabi cho‘ntak turlarini hisoblash, dastlabki loyihalash ishlarini amalga oshirish. Erkaklar pidjagi yoqa turlari tavsifi. Yoqa uchun kerakli o‘lchamlar. Dastlabki loyihalash jarayonlari. Yeng turlariga tavsif. Bir chokli, ikki chokli yenglarni loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlar. Gavdadan olinadigan kerakli o‘lchamlar.

36-Mavzu: Erkaklar pidjagi asos konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andazani gazlama yuzasiga joylash va yuzasini hisoblash.

Erkaklar pidjagini baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andoza tayyorlashning texnik shartlari. Asos gazlamaga andozaga joylashtirishda tanda va arqoq iplar hisobi. Pidjak andaza yuzasini hisoblash.

37-Mavzu: Ayollar kurtkasi model eskizi bo‘yicha asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish.**

Ayollar qishki mavsumdagagi kurtkasi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Kurtka uchun gavdadan olinadigan kerakli o‘lchamlar. Tanlangan kurtka model eskizi bo‘yicha old va ort bo‘lak asos konstruktsiyasi baza to‘rini hisoblash va qurish.

38- Mavzu: Ayollar kurtkasi model eskizi bo‘yicha mayda detallari konstruksiyasini hisoblash va qurish.

Ayollar qishki kurtkasi model eskizi bo‘yicha yeng, yoqa, manjet, kapyushon detallari model konstruksiyasini hisoblash va qurish.

40-Mavzu: Ayollar kurtkasi model eskizi bo‘yicha modellashtirish.

Modellashtirish hususiyatlari. Ayollar qishki mavsumidagi kurtka asos konstruktsiyasini modellashtirish orqali yangi dizayndagi kurtka na’munasini tayyorlash.

41-Mavzu: Ayollar kurtkasi model eskizi bo‘yicha andazasini tayyorlash va gazlama yuzasini hisoblash.

Ayollar qishki kurtkasining baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andoza tayyorlashning texnik shartlari. Asos gazlamaga andozaga joylashtirishda tanda va arqoq iplar hisobi. Ayollar qishki kurtkasi andaza yuzasini hisoblash.

42-Mavzu: Erkaklar kurtkasi model eskizi bo‘yicha asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish.**

Erkaklar qishki mavsumdagagi kurtkasi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Kurtka uchun gavdadan olinadigan kerakli o‘lchamlar. Tanlangan kurtka model eskizi bo‘yicha old va ort bo‘lak asos konstruktsiyasi baza to‘rini hisoblash va qurish.

43-Mavzu: Erkaklar kurtkasi model eskizi bo‘yicha asos konstruktsiya (AK) dan modellashtirish.*

Modellashtirish hususiyatlari. Erkaklar qishki mavsumidagi kurtka asos konstruktsiyasini modellashtirish. Cho‘ntak, yoqa turlari bo‘yicha yangi dizayndagi kurtka na’munasini tayyorlash.

44-Mavzu: Erkaklar kurtkasi model eskizi bo‘yicha andazasini tayyorlash va gazlama yuzasini hisoblash.

Erkaklar kurtkasi baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andoza tayyorlashning texnik shartlari. Asos gazlamaga andozaga joylashtirishda tanda va arqoq iplar hisobi. Erkaklar kurtkasi andaza yuzasini hisoblash.

45-Mavzu: Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish.

Ayollar mavsumiy paltosi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar mavsumiy paltosi loyihalash uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Tanlangan palto model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak asos konstruktsiyasi baza to'rini hisoblash va qurish.

46-Mavzu: Ayollar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasi (AK) ni modellashtirish.

Modellashtirish hususiyatlari. Ayollar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasini modellashtirish. Cho'ntak, yoqa turlari bo'yicha modellashtirish. Vitochkalar, relef qirqimlarni loyihalash. Yangi dizayndagi kurtka na'munasini tayyorlash.

47-Mavzu: Erkaklar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish.*

Erkaklar mavsumiy paltosi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Erkaklar mavsumiy paltosi loyihalash uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Tanlangan palto model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak asos konstruktsiyasi baza to'rini hisoblash va qurish.

48-Mavzu: Erkaklar mavsumiy paltosi asos konstruktsiya (AK) dan modellashtirish.

Modellashtirish hususiyatlari. Erkaklar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasini modellashtirish. Cho'ntak, yoqa turlari bo'yicha modellashtirish. Vitochkalar, relef qirqimlarni loyihalash. Yangi dizayndagi kurtka na'munasini tayyorlash.

49-Mavzu: Maxsus kiyim turlari, assortimentlari va klassifikatsiyasi.

Turli sohadagi maxsus ish kiyimlari turlari klassifikatsiyasi hamda ularga tavsif. Kiyim paketlarini hususiyatlari, kiyimlarini qo'llanish sharoiti, maxsus ish kiyimlarini ishlab chiqarishda sifatini baholash. Maxsus kiyimga qo'yiladigan talablar.

50-Mavzu: Elektr ta'minot ishchi xodimlari maxsus kiyimi asos konstruktsiyasi (AK) qurish va modellashtirish.*

Elektr ta'minot ishchi xodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o'lchamlar. Cho'ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

51-Mavzu: Santexnik sohasidagi xodim kiyimini baza asos konstruktsiyasini qurish va modellashtirish.**

Santexnik soha xodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o'lchamlar. Cho'ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

51-Mavzu: Qurilish va shifokor sohasidagi ishchi xodim kiyimini baza asos konstruktsiyasini qurish va modellashtirish.

Qurilish sohasidagi ishchi hodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o'lchamlar. Cho'ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

52-Mavzu: Mo'ynali kiyimlarni asos konstruktsiya (AK) dan modellashtirish.*

Mo'ynali kiyim turlari. Konstruktiv metodika turlari. Mo'ynali kiyimlar ishlab chiqarishdagi texnik shartlar. Gavdadan kerakli o'lchamlar. Qo'shimchalar, turlari va ulardan foydalanish. Old hamda ort bo'lak asos konstruktsiyasi. Mayda detallar konstruktsiyasi. Mo'ynali kiyimlarni asos konstruktsiyadan modellashtirish.

53-Mavzu: Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqarishdagi texnik shartlar. (asosiy andazalar, astar detallari va kontrol detallar andazalari). Chizmalar asosida andazalar xosil qilish.

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari. Konstruktorlik hujjatlari. Andazalarni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Andazalar chizmalarini tayyorlash asoslari.

54-Mavzu: Bichiq detallarni tayyorlash. Andazalar spesifikatsiyasi (ishchi, hosila, yordamchi andazalar vazifasi).

Andazalarni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Andazalar chizmalarini tayyorlash asoslari. Andazalar spesifikatsiyasi ishchi, hosila,yordamchi andazalar vazifasi.

Izox: ** Indian Institute of Technology Delhi (IITD)

*Saodat sanoat servis, "Ideal textile Orzu", "Nazman" Masulyati cheklangan jamiyat korxonalarli tavsiyasi asosida olingan.

Ma'ruza mashg'ulotlar multimedya qurulmalari bilan jixozlangan auditotiyada bir akademik guruhga bir professor-o'qtuvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotda faolva interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar, qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quydag'i mavzular tavsiya etiladi:

1. Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar va kiyim turlari. Kiyim funksiyasi va kiyim assortimenti va tavsifi.

2. Kiyim tashqi shakli kiyimga qo'yiladigan talablar.

3. Odam qomatlarini o'lchash. Antropometrik nuqtalar.

4. Katta yoshli aholi va kichik yoshdagi bolalar o'lcham kattaliklarini aniqlash.

5. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar yubkasini konstruksiyasini qurush va modelashtirish.

6. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar shimini konstruksiyasini qurush va modelashtirish

7. O'lcham kattaliklari bo'yicha erkaklar shim baza to'rini konstruksiyasini hisob formula asosida chizish.

8. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar bluzkasini baza to'rini, konstruksiya hisob formula asosida chizish.

9. O'lcham kattaliklari bo'yicha erkaklar sorochkasi konstruksiyasini chizish.

10. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar ko'ylak baza to'rini konstruksiyasini hisob formula asosida chizish.
11. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar ko'ylak konstruksiyasi asosida modelashtirish.
12. O'lcham kattaliklari bo'yicha ayollar ko'ylak yeng konstruksiyasini chizish va madellashtirish.
13. O'lcham kattaliklari bo'yicha maktab yoshidagi qiz bolalar ko'ylak va nimcha konstruksiyasini chizish.
14. O'lcham kattaliklari bo'yicha maktab yoshidagi qiz bolalar kurtkasini konstruksiyasini chizish.
15. O'lcham kattaliklari bo'yicha maktab yoshidagi o'g'il bolalar kombinzonini konstruksiyasini chizish.
16. Kundalik buyumlar konstruksiyasini qurish.
17. Chaqaloqlar yaxtag, shalvar va shapka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
18. Bog'cha yoshidagi qizbolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
19. Bog'cha yoshdag o'g'il bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
20. Maktab yoshidagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
21. Maktab yoshdag o'gil bolalar va qizbolalar uchun shim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
22. Bog'cha va maktab yoshdag qizaloqlar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
23. Bog'cha va maktab yoshdag qizaloqlar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
24. Bog'cha va maktab yoshdag o'g'il bolalar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
25. Bog'cha yoshdag o'g'il va qiz bolalar kombinzonni baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
26. Maktab yoshidagi qiz bolalar uchun forma baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
28. Maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun forma baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
29. O'smir yoshidagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
30. O'smir yoshidagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
31. O'smir yoshidagi qiz bolalar uchun ustki kiyim konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*

32. O'smir yoshidagi o'g'il bolalar uchun ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
33. Ayollar tungi liboslari baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
34. Ayollar oqshom liboslari va korsetlar baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
35. Trikotash buyumlarini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
36. Ayollar trikotaj ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
37. Bolalar trikotaj kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
38. Erkaklar polo ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
39. Erkaklar nimchasini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
40. Ayollar pidjagi old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish
41. Ayollar pidjagi chontagini chizish va hisoblash.
42. Ayollar pidjagi yoqasini chizish va hisoblash.
43. Ayollar pidjagini andazasi asosida gazlamani bichish.
44. Erkaklar pidjagi old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish**
45. Erkaklar pidjagi chontagini chizish va hisoblash.
46. Erkaklar pidjagi yoqasini chizish va hisoblash.
47. Erkaklar pidjagi yengini chizish va hisoblash.
48. Erkaklar pidjagini andazasini tayyorlash, andazani gazlama yuzasiga joylash va andaza yuzasini hisoblash.
49. Erkaklar pidjagini andazasi asosida gazlamani bichish.
50. Ayollar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish.
51. Ayollar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha yeng, yoqasini model konstruksiyasini chizish va hisoblash.
52. Ayollar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha modellashtirish.
53. Ayollar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha andazasini tayyorlash va gazlama yuzasini hisoblash kurtka asosidan modellashtish
54. Erkaklar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish.
55. Erkaklar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha yeng, yoqasini model konstruksiyasini chizish va hisoblash.
56. Erkaklar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha modellashtirish.
57. Erkaklar qishki kurtkasi model eskizi bo'yicha andazasini tayyorlash va gazlama yuzasini hisoblash.
58. Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish.
59. Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha yeng, yoqasini model konstruksiyasini chizish va hisoblash va modellashtirish.
60. Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha modellashtirish.
61. Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha andazasini tayyorlash va gazlama yuzasini hisoblash.

62. Erkaklar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak baza to'rini hisoblash va chizish va modellashtirish.*
63. Erkaklar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha yeng, yoqasini model konstruksiyasini chizish va hisoblash.*
64. Erkaklar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha modellashtirish.
65. Erkaklar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha andazasini tayyorlash gazlama yuzasini hisoblash.
66. Elektr ta'minot ishchi hodimlari maxsus kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
67. Santexnik soha hodim kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
68. Qurilish va shifokorlar soha ishchi hodim kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
69. Shifokor soha hodim kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
70. Mo'ynali kiyimlar baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.**
71. Mo'ynali bosh kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
72. Kiyim detallarini andazalarini ishlab chiqarish.
73. Gazlamani andaza yuzasiga joylashtirish. Gazlama yuzasini hisoblash usullari.
74. Andazalar gradatsiyalash (ko'paytirish).
- Izox: ** Indian Institute of Technology Delhi (IITD)*
- *Saodat sanoat servis, "Ideal textile Orzu", "Nazman" Masulyati cheklangan jamiyat korxonalarini tavsiyasi asosida olingan.*
- Laboratoriya mashg'ulotlar tikuv jihozlari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhni kichik guruhlarga bo'lgan holda o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar talabalarning tasvirlash qobiliyatini hisobga olgan holda individual yondashib o'tlishi, pedagogik va axborot texnologiyalar, master klass metodlarini qo'llab dars o'tishi maqsadga muvofiq.

- V. Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar**
1. Kiyim shakli o'lchamlari va konstruksiyasining xususiyatlari.
 2. Kiyim konstruksiyalash usullari. Ularning umumiy tavsifi va tasnifi.
 3. Kiyim detallarining dastlabki chizmasini tuzish.
 5. Old va orqa bo'laklar asosiy konstruksiyasining chizmasini qurish.
 6. Bazaviy asoslar konstruksiyalash usullarini va konstruksiyalar xarakteristikasi.
 7. EMKO xususiyatlari.
 8. O'tqazma yeng konstruksiyasining xususiyatlari va konstruksiyalash usullari.
 9. Turli yoqalar konstruksiyasining xususiyatlari va konstruksiyalash usullari.
 10. Kiyim konstruktiv modellashning umumiy prinsiplari.
 11. Bazaviy konstruksiya shaklini o'zgartirtirib konstruktiv modellash usullari.
 12. Turli shakil va modeldag'i yoqalarni konstruksiyalash.
 13. Yeng bichimini o'zgartirib konstruktiv modellash usullari.
 14. Ayollar astarli jaketi asos konstruksiyasini hisoblash va chizish

15. Ayollar jaketi uchun bir va ikki chokli yenglar konstruksiyasini hisoblash va chizish
16. Ayollar jaketini modellashtirish
17. Ayollar jaketini asosiy va hosila andozalarini tayyorlash
18. Ayollar bahorgi-kuzgi paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish
19. Ayollar bahorgi-kuzgi paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish
20. Ayollar paltosining asosiy va hosila andozalarini tayyorlash
21. Milliy uslubdan foydalanib zamoviy libos yaratish.
22. Milliy atlaslarimizdan foydalanib libos loyhasini ishlab chiqish
23. Bog'cha yoshidagi qizbolalar uchun ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
24. Bog'cha yoshidagi qizbolalar uchun ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
25. Maktab yoshdagagi qizbolalar uchun ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
26. Maktab yoshdagagi o'gil bolalar va qizbolalar uchun shim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
27. Bog'cha va maktab yoshdagagi qizaloqlar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
28. Bog'cha va maktab yoshdagagi o'gil bolalar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
29. Bog'cha va maktab yoshdagagi qizaloqlar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
30. Bog'cha va maktab yoshdagagi o'gil bolalar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
31. Bog'cha va maktab yoshdagagi o'gil bolalar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
32. Ayollar tungi liboslari baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
33. Ayollar oqshom liboslari va korsetlar baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.*
34. Trikotash buyumlarini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
35. Ayollar trikotaj ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
36. Bolalar trikotaj kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
37. Bolalar trikotaj kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
38. Erkaklar polo ko'yak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
39. Erkaklar nimchasini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish
40. Turli materiallardan (mo'yna, charm, plenka) kiyimlarni konstruksiyalash
41. Trikotaj polotnosidan kiyimlarni konstruksiyalash
42. Ayollar pal'tosini konstruksiyalash
43. Ayollar ko'ylagini MGUDT uslubi bo'yicha loyihalash

Izox: *Saodat sanoat servis, "Ideal textile Orzu", "Nazman" Masulyati cheklangan jamiyat korxonalari tavsiyasini asosida ollingan.

	Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan ishlagan ishlari joriy hamda yakuniy ko‘riklarda namoyish qilishlari tavsiya etiladi va ishlar shu erda baholanadi.
4	<p>VI. Ta’lim natijalari/kasbiy kompetentsiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fanini o‘zlashtirish jarayonida ommaviy tikiladigan kiyimlarni ishlab chiqarish xususiyatlai, kiyim sifati va unga qo‘yiladigan talabl, model konstruksiyasi baza to‘rini qurish, baza to‘ri asosida modellashtirish, modellarni ishlab chiqarishga tadbiq etish, risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi</i>; (bilim) • Odam gavdasidan o‘lchov olish va ularni to‘g‘ri belgilay olishni, turli bichimdagи kiyimlar asos konstruktsiyasini chizish va ularni tahlil qila olish, kiyimni eskizlarini yuqori did bilan tasvirlay olish, buyum andozasini tayyorlashni, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini konstruksiyalash, zamonaviy moda yo‘nalishi asosida kiyim larni texnik modellash asoslari, kiyim andozalarini tayyorlash va ularni to‘g‘ri rasm iylashtirishning texnik talablari, kiyim andozalarini gazlamaga tejam korlik bilan joylashtirish, odam qomatida kiyimning asosiy detallarini shakllantirish, kiyimda uchraydigan nuqsonlarni bartaraf qila <i>bilishi va undan foydalana olishi</i>; (ko‘nikma) • Turli bichimdagи kiyimlar asos konstruktsiyasini chizish va ularni tahlil qila olish, kiyim eskizlarini yuqori did bilan tasvirlay olish va uni texnik modellash, buyutrmachi gavdasidan o‘lchov olish va ularni to‘g‘ri belgilay olish, buyum andozasini buyutrmachi gavda tuzilishiga qarab tayyorlash va uni to‘g‘ri rasmiylashtira olish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>. (malaka)
5	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash;
6	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
7	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kamilova X.X., Xamrayeva N.K. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Darslik “Cho‘lpon”, 2011 y-400b. 2. S. U. Pulatova “Ustki kiyimlarni konstruksiyalash va madellashtirish” Toshkent. 2021 y – 385 b.

	<p>3. J.S.Ergashev, N.N.Nabidjanova, D.X.Rayimberdiyeva, R.A.Ergasheva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘qituvchi” 2021 y. -321b. Qo‘srimcha adabiyotlar.</p> <p>4. Амирова Э., Сакулин О. И др. Конструирование одежды. Учебник «Академия», 2012 г,</p> <p>5. Янчевская Е.А. Аёллар уст кийимини кострукциялаш. Ўкув кўлланма. Т.: «Ўқитувчи» 1997 йил-278 бет.</p> <p>6. Коблякова Ё.Б. “Конструированию одежды с элементами САПР”. Учебник -Москва, «Легпромбытиздан», 1988 г-464 стр.</p> <p>7. G.K.Xasanboeva “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash” T. 1990 yil</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>8. https://scienceweb.uz/,</p> <p>9. http://modanews.ru/dooks</p> <p>10. http://wellconstruction.ru/konstrl/kratkiy-obzor-uchebnikov-po-konstruirovaniyu-obezhdvi</p> <p>11. https://textile.iitd.ac.in/</p>
8	Namangan To‘qimachilik sanoat instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:
9	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>M.Rizametova – Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “DIZAYN” kafedrasi katta o‘qituvchisi.</p> <p>K.Boymatova – Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “DIZAYN” kafedrasi katta o‘qituvchisi.</p> <p>F.Sodiqova – Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “DIZAYN” kafedrasi assistenti.</p>
10	<p>Taqrizchilar:</p> <p>I.Mirzayev -“Orzu Ideal” korxonasi tikuv sexi texnoligi.</p> <p>N.Maqsudov -Namangan to‘qimachilik sanoati “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi” kafedrasi mudiri.</p>